

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН МУХАНДИСЛИК-ТЕХНОЛОГИЯ
ИНСТИТУТИ**

**Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш, фан ва
таълимнинг интеграциясига инновацион
технологияларни тадбиқ этишда халқаро
фермерларнинг роли**

халқаро илмий анжуман

МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ

2020 ЙИЛ 25-26 СЕНТЯБРЬ

2-қисм

НАМАНГАН - 2020

УДК: 821-512-133-9

КВК: 84 (5 Ўзб-рус-инг.) 7

К – 1

“Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш, фан ва таълимнинг интеграциясига инновацион технологияларни тадбиқ этишда халқаро фермерларнинг роли” мавзусидаги халқаро илмий анжуман мақолалари тўплами (2020 йил 25-26 сентябрь) 1-қисм. – Наманган, 2020. – 408 бет.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожатномасида белгиланган муҳим вазифаларнинг ижроси “Илм-фан ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш” йилида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 7 февраль 2020 йилдаги 56-сонли фармойишига асосан Наманган муҳандислик-технология институтида ўтказилган “Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш, фан ва таълимнинг интеграциясига инновацион технологияларни тадбиқ этишда халқаро фермерларнинг роли” мавзусидаги халқаро илмий анжуманнинг тўпламига мамлакатимиз ва жаҳоннинг кўплаб мамлакатлари олимлари ва тадқиқотчиларининг олиб бораётган илмий ишлари киритилган.

Ушбу илмий-амалий конференциянинг асосий мақсади иқтисодиётни янада либераллаштириш, иқтисодий ресурслардан самаралироқ фойдаланиш, қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш ҳамда фан ва таълимнинг интеграциясига инновацион технологияларни тадбиқ этиш бўйича муаммоларни ҳал этиш ва унинг самарадорлигини оширишда эришилган ютуқларни муҳокама қилиш, оммалаштириш ҳисобланади.

Масъул муҳаррирлар:

Р.Г.Дани қ.х.ф.д. профессор

О.С.Казаков и.ф.н., доцент

Р.Б.Исмаилов и.ф.н., доцент

Таҳрир ҳайъати:

О.О.Маматкаримов ф.м.ф.д. профессор

Р.Г.Дани қ.х.ф.д. профессор

Ш.Д.Саидбоев и.ф.д., проф

О.С.Казаков и.ф.н., доцент

Р.Б.Исмаилов и.ф.н., доцент

М.Абдувахидов т.ф.н., профессор

А.Сохадалиев и.ф.н., доц.

Д.Исмоилов (PsD)

Тақризчилар:

Х.Т.Ахмедходжаев т.ф.д., профессор

Р.М.Мурадов т.ф.д., профессор

Мазкур тўпламга киритилган маърузаларнинг мазмуни, ундаги статистик маълумотлар ва меъёрий хужжатлар санасининг тўғрилиги ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.

ISBN: 978-9943-6723-6-9

© Наманган муҳандислик
технология институти, 2020

5. M.Sultonboeva. The state of development of investment funds in Uzbekistan. *Biznes-expert*. Vol 2(110)-2017.

6. K.Hamraev. Problems of development of investment funds in Uzbekistan. *Biznes-expert*. Vol 2(134)-2019

Hojamuratova Gulbahor Yuldashevna - dotsent, i.f.n
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
(O'zbekiston Respublikasi)

QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Аннотация. Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi respublikamizning istemol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan bog'liq muommolar yoritilgan. Qoleversa, "Aqlli qishloq xo'jaligi" Konsepsiyasi doirasida qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarni faol tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali O'zbekistondagi yer maydonlari va ekinlarini obyektiv xaritalashga doir ishlarni amalga oshirish bo'yich takliflar berilgan.

Annotation. This article deals with the problems associated with the supply of raw materials to the food market and processing industry of the agricultural market of the republic. Suggestions were made for the implementation of work on objective mapping of land and crops in Uzbekistan.

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы, связанные с поставкой сырья на рынок пищевой и перерабатывающей промышленности аграрного рынка республики. Были внесены предложения по проведению работ по объективному картированию земель и посевов в Узбекистане.

Kalit so'zlar. *Qishloq xo'jaligi, "Aqlli qishloq xo'jaligi" Konsepsiyasi, oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat xavfsizligi, bozor kon'yunkturasi, xavfsizlik.*

Keywords. *Agriculture, Smart Agriculture Concept, Food, Food Security, Market Conditions, Security.*

Ключевые слова. *Сельское хозяйство, концепция умного сельского хозяйства, еда, продовольственная безопасность, рыночные условия, безопасность.*

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini shakllantirishda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirishda qishloq xo'jaligiga oid tadqiqotlarni kuchaytirish va qishloq xo'jaligiga ta'sir etuvchi tabiiy omillarning ta'sirini tadqiq etish ham katta ahamiyatga ega. Qolaversa, keng ko'lamlil tarkibiy o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar qishloq xo'jaligidagi vaqt mobaynida makondagi jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Zero, bugungi kunda qishloq xo'jaligida paxta ekiladigan yerlarni optimallashtirish va boshqali don ekinlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik uchun ajratilgan maydonlarni kengaytirish hisobidan ekin maydonlari tarkibida o'zgarishlar amalga oshirish jadal davom etmoqda. Hozirgi kunda ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligini

rivojlantirish muammolarini hal etishda raqamli texnologiyalarga alohida e'tibor qaratish zarur. Qishloq xo'jaligi respublikamizning istemol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib ham hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimiz prezidenti tominidan "Aqlli qishloq xo'jaligi" Konsepsiyasi doirasida qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarni faol tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali O'zbekistondagi yer maydonlari va ekinlarini obyektiv xaritalashga doir ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. O'zbekistonda "Aqlli qishloq xo'jaligi" Konsepsiyani jorish etish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- boshqaruv samaradorligini oshirish;
- resurstejamkor texnologiyalar, xususan aniq uyalab ekadigan seyalkalar, GPS uskunlari bilan jihozlangan qishloq xo'jaligi texnikalarini qo'llash;
- suv resurslari, o'g'itlardan samarali foydalanishni nazarda tutuvchi suvtejoychi sug'orish texnologiyalari foydalanish;
- qishloq xo'jaligi hayvonlarini parvarishlash va sutni sog'ish bo'yicha robototexnikalarni qo'llash;
- qishloq xo'jaligiga yangi zamonaviy kasb egalari bo'lgan xodimlarni (mutaxassislarni) jalb etish;
- ma'lumotlar almashinuvining raqamli formatiga o'tish, hisobot turlarini qisqartirish bilan ishtirokchilarning o'zaro va davlat bilan hamkorligi samaradorligini oshirish;
- respublikaning qishloq xo'jaligi quyi tarmoqlari va hududlari kesimida umumfoydalanishga qaratilgan bilim va texnologiyalar bankini yaratish;
- iqlim o'zgarishlariga moslashuvchanligi va chidamliligini oshirish;
- raqobatbardosh, bozor va eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligini shakllantirish;
- oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish;
- davlat sarf-xarajatlarining samaradorligini, shu jumladan davlat-xususiy sherikchilik asosida oshirish;
- xorijiy analoglarga mos keladigan "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini rejali asosda joriy etib borish;
- innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining logistika infratuzilmasi samaradorligini oshirish.[3]

Qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarni faol tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali yer maydonlari va ekinlarini obyektiv xaritalashga doir ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi va bu orqali qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirishga erishiladi. Qishloq xo'jaligi vazirligi, OneSoil, Boston Consulting Group kompaniyalari bilan hamkorlikda O'zbekistonda qishloq xo'jaligida sun'iy yo'ldosh ma'lumotlardan foydalanishga doir bitim imzolandi. Mazkur bitim "Aqlli qishloq xo'jaligi" Konsepsiyasi doirasida qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarni faol tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali O'zbekistondagi yer maydonlari va ekinlarini obyektiv xaritalashga doir ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Loyiha mamlakatimizdagi bitta viloyat

misolida pilot tarzda amalga oshirilib, bu borada dalalardagi ekinlarni multispektral diapazondagi yo'ldosh suratlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Joriy yilning avgust oyida qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish va ekinlarning o'sishi sharoitlari bo'yicha ma'lumotni aniqlash, yechimlarini ishlab chiqish bo'yicha investitsiya portfelini yaratishga qaratilgan seminarlar o'tkaziladi. [4] O'zbekistonda "Aqlli qishloq xo'jaligi" Konsepsiyani jorish etishda quyidagi muammolar mavjud:

- ✓ Mutaxassislarni bilim tajribalarini yetarli emasligi
- ✓ Lagistika infratuzlilmalarni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi
- ✓ Oziq –ovqat xavfsizligi yetarlicha ta'minlanmaganligi
- ✓ Texnologiyalarni chet eldan import qilinishi natijasida valyutani kata qismi chet elga chiqishi. [1]

Mamlakatimizda ekin maydonlarini sug'orishga milliardlab kubometr suv yo'naltirilayotgani haqidagi dalillar keltirish mumkin. Biroq faqat taxminan 60 foizigina dalalarga yetib boradi. Shu bilan birga Jahon suv resurslari institutining prognozi tezkor choralar ko'rish zarurligini ko'rsatmoqda. Jumladan, institut mutaxassislarning fikricha, 2040-yilga kelib, O'zbekiston dunyoning suv o'ta taqchil bo'lgan 33 mamlakati qatoriga kirishi mumkinligi qayd etildi. Kelajakda bu holat ko'plab sohalarga ta'sir qilishi mumkin. Shu sabab, ushbu resursni saqlab qolish ustuvor ahamiyatga ega. [2] Har yili 200 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish vazifasi qo'yildi. Ular bu sohada yaratilgan strategiyaning bir qismiga aylanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda "Aqlli qishloq xo'jaligi" Konsepsiyani jorish etish zaruriy jarayonlardan biri hisoblanadi. Mutaxassislarni bilim tajribalarini oshirish maqsadida Prezidentimiz Belarusga qilgan tashrifi doirasida "Belarus" yuqori texnologiyalar parki faoliyati bilan tanishdi. Mazkur texnopark rezidentlari imkoniyatlarining O'zbekistonda taqdimotini tashkil etish taklifini ilgari surdi va bu orqali mamlakatimizdagi mutaxassislarni tajribalarini oshirish hisoblanadi.. Texnologik hamkorlikni mustahkamlash, kadrlar tayyorlash va tajriba almashish bo'yicha aloqalarni kengaytirish yuzasidan tavsiyalar berildi. Shuningdek, bu boradagi rivojlanish haqida gapirsak, yangi texnologiyalarni joriy etish atroflicha o'rganildi. Jalb qilingan ishchilar soni, vaqt, va albatta, masalaning moliyaviy tomoni ularga bevosita bog'liq. Jumladan, 76 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etildi. Bu aholini jumladan, ta'lim muassasalari bitiruvchilari bo'lgan yoshlarni ish bilan ta'minlash imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi natijalarni ko'radigan bo'lsak, 2018 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 53,2 foizi o'simlik mahsulotlarini, 46,8 foiz chorvachilik mahsulotlarini tashkil etdi. 2017 yilda qishloq xo'jaligida 3,7 million kishi ish bilan ta'minlandi (jami ish bilan ta'minlanganlarning 27,2 foizi). Mamlakat aholisining deyarli yarmi qishloq joylarida yashaydi (2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 33,25 mln. kishi, shu jumladan, qishloq joylarda 16,45 mln kishi (aholining 49,5 foizi) yashaydi). Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini oshirishda, yangi texnologiyalar kiritish, mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy tarmoqni modernizatsiyalash usulida rivojlantirishga o'tish talab qilinadi. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun nazarimizda, uchta masalani hal qilish lozim:

– respublika, viloyat va tuman miqyosida qishloq tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilarining, bozor kon'yunkturasi bo'yicha resurslar bozori, qishloq xo'jalik tovariga bo'lgan talab, raqobatbardosh mahsulotlar navlari urug'larini etishtirish, zotli mol, texnologiya, transport vositalari, ichki va tashqi bozorga taalluqli boshqa axborotlar bilan ta'minlaydigan axborot xizmatini tuzish va takomillashtirish; – O'zbekiston standartlarini jahon standartlariga moslashtirish bo'yicha ishlash, standartlashni takomillashtirish;

– ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotini etishtirishda tor ixtisoslashtirishga o'tish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdug'aniev A.A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. T.: TDIU, 2006. – 283 b.

2. Xusanov R.X. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va agrar iqtisodiyot. – T.: Yagi asr avlodi, 2004. – 205 b.

3. O'murzoqov O'P. va boshqalar. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. T.: "Iqtisod-moliya", 2008.-87-89 b.

4. Уктамов Х.Ф., Файзиев. Р. А. Роль эконометрического моделирования в обеспечения устойчивого экономического роста страны. Молодежь в науке: новые аргументы новые аргументы 2018 й. 16-феврал

Охунова Шоҳиста Наманжановна -и.ф.н., доцент
e-mail: shoxista1975@mail.ru Моб.: 998912851545

Туичиева Шоҳсанам – 2-курс талабаси
e-mail: wan3456@yandex.com Моб.: 998905812230

Фарғона Политехника Институти

Усмонов Рустамжон Каримжанович

Болтабаев Дилмурод Абдурашитович

Наманган мухандислик-технология институти

(Ўзбекистон Республикаси)

Назарова Маҳлиё, катта ўқитувчи,

mahanazarova555@gmail.com +996552474910

Ўш Давлат университети (Қирғизистон Республикаси)

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА ТЎСИҚЛАРИ ҲАМДА УНИНГ ИЖТИМОЙ- ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ

Аннотация. Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг шакллари; уларнинг иқтисодий ресурслари; ишлаб чиқариш самарадорлиги; marketing фаолияти; бизнесни режалаштириш; саноатда моддий-техника, ер ва меҳнат ресурсларидан фойдаланишнинг ҳолати ва самарадорлиги кўриб чиқилади. Бизнинг шароитимизда қишлоқ хўжалигининг ўсиш суръати пухта ўрганилмоқда. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари фаолиятини мураккаб таҳлил қилиш усули таклиф этилади.

Калит сўзлар: қишлоқ хўжалиги / қишлоқ инфратузилмаси / қишлоқ хўжалиги унумдорлиги / ўсиш суръати / қишлоқ хўжалиги

154	Tursunov Anvar Maxmudjonovich, Namangan muhandislik texnologiya instituti, (O'zbekiston Respublikasi) DISKRET VAQTLI DINAMIK SISTEMALAR VA ULARNI QO'LLANILISHI	373
155	Уктамов Хусниддин Фахриддинович Ташкентский Государственный Экономический Университет (Республика Узбекистан) ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗА РУБЕЖОМ	374
156	Уктамов Хусниддин Фахриддинович Тошкент давлат иқтисодий университети (Ўзбекистон Республикаси) КОРХОНАЛАР ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ БАХОЛАШНИНГ КЎРСАТКИЧЛАР ТИЗИМИ	378
157	Yakhyayeva Inobat Karimovna, Tashkent State University of Economics, Tashkent, Republic of Uzbekistan ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE LEAN PRODUCTION SYSTEM IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	381
158	Tursunov B.O., Tashkent state university of economics, Republic of Uzbekistan ISSUES OF DEVELOPMENT OF INVESTMENT FUNDS IN OUR COUNTRY	386
159	Hojamuratova Gulbahor Yuldashevna Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, (O'zbekiston Respublikasi) QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH IMKONIYATLARI	390
160	Охунова Шоҳиста Наманжановна, Гуичиева Шоҳсанам, Усмонов Рустамжон Каримжанович, Болтабаев Дилмурод Абдурашидович Фарғона Политехника Институти, Наманган мухандислик-технология институти (Ўзбекистон Республикаси) Назарова Махлиё, (Қирғизистон Республикаси) ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА ТЎСИҚЛАРИ ҲАМДА УНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	393
161	O'ktamov Dilmurod Aminjonovich, Adashev Behzod Sheraliyevich, Haydarova Setora Zuxriddinovna, Xodjiyev Adhamjon Axmad o'gli Namangan muxandislik texnologiya instituti (O'zbekiston Respublikasi) NON VA NON MAXSULOTLARINI SIFAT KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH	399
162	Мирзамаҳмудова Мадина Одилжон кизи – таянч докторант e-mail: madinabonu1311@mail.ru моб.: +99893 5785323 Ўзбекистон Миллий Университети, (Ўзбекистон Республикаси) ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ ЖИҲАТДАН НОЧОР АҲОЛИ ҚАТЛАМ ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИШЛАР ВА ТИЗИМДАГИ МУАММОЛАР	403